ISSN 2091-5446

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 4-son (122) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV - O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV - O'zFA akademigi
T. MIRZAYEV - O'zFA akademigi
SH. A. HASANOV - fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV - fil.f.d., professor (SamDU)
M. MUXIDDINOV - fil.f.d., professor (SamDU)
N. SH. SHODIEV - ped.f.d., professor (SamDU)
M. M. MAXMUDOVA - ped.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV - fals.f.d., professor (SamDU)
J. YA. YAXSHILIKOV - fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV - i.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV - t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV - t.f.d., professor (SamDU)
TAMIR KLEIN - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
NAZIF SHAHRANY - Indiana universiteti professori (AQSh)
HIROAKI HUZIIE - Osaka universiteti professori (Yaponiya)
KIM SUNGHAE - Daeju universiteti professori (Koreya)
BYLAPPA MANJUNATH - Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston)

Obuna indeksi – yakka tartibidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY		
Xatamov T. A.	Maktab ta'limida ma'naviy-tarbiyaviy islohotlar: tarixiy tahlil (1997-2010 yy.)	4
Сабиров А.Т.	Устная история в исследовательской практике Беларуссии и Узбекистана	7
Sharipov Sh. Z.	O`zbekistonda milliy – madaniy markazlar faoliyati huquqiy asoslarining shakllantirilishi	12
Zaripov O. O.	Rossiya imperiyasi ma'murligi davrida Turkiston o'lkasida suv xo'jaligi boshqaruv tizimi	16
[Bodirov A.], Bodirova Z.	Samarqandlik jangchilarni fashizmni tor-mor etishdagi ishtiroki	19
Raximov N.Sh.	Qayta qurish yillari va Xorazm xalq sovet respublikasi tarixiga yangicha yondashuvlar	22
Gadoyev H. U.	Sovet davlatida greklarning ko'chirilishi tarixidan: sabab va oqibat	27
Шадманов Т. Р.	Создание жилищно-строительных кооперативов в Узбекистане в 20-30-е гг. XX в.	30
Turopova M. T.	Janubiy O'zbekiston hududlarida 1897-1940-yillardagi demografik jarayonlar	33
Yakubov B. S.	XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning boshlarida siyosiy partiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokining o'rganilishi masalalari: asosiy bosqichlar va yondoshuvlar	37
Шарипова Г. У.	Развитие сотрудничества между государствами Узбекистана и Малайзии в сфере науки и образования	42
Ermetov A.A.	Qayta qurish yillarida O'zbekiston ichki ishlar organlarining faoliyatidagi xususiyatlar (1985-1991 yillar)	46
FALSAFA / PHILOSOPHY		
Xashimov Sh. J.	O'zbekistonda turistik klasterlar va ularning ijtimoiy-falsafiy masalalari	52
Abdullayev S. T.	Inson ma'naviy borlig'i va go'zallik kategoriyasining falsafiy tahlili	55
Xudayqulov D. I.	Yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik tafakkur transformasiyasi	59
Yusupov M. S.	O'zbekistonning milliy yuksalishida tibbiyot xodimlarining kasb axloqini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy qonun-qoidalarining falsafiy tahlili	62
Юсупова Ф. З.	Социально-философский анализ инновационной активности молодежи	65
Samatov X. U.	Naqshbandiya tariqatida xalq bilan muloqot qilishning tasavvufiy-falsafiy asoslari	69
Sharipov A. Z.	Globallashuv va mafkuraviy o'zgarishlarning o'zaro aloqadorligi	74
Boboqulova X. E.	Mustaqillik davri yangi milliy - falsafiy tafakkur rivojlanishning xususiyatlari	78

Alimov A. N.	Husayn Voiz Koshifiyning ta'limotida ijtimoiy adolat masalalari	82
Turobov B. N.	Alisher Navoiy ijodida inson muammosi	84
Haydarov K. D.	Ma'naviy qadriyatlar takomilida so'fiylik falsafasining o'rni	87
	SOTSIOLOGIYA / SOCIOLOGY	
Oripov X.A., Shakarov J.Sh.	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosatidagi islohotlar, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalari	93
Nuriddinov S. B.	Xitoyning «Bir makon - bir yo'l» tashabbusi uchun motivatsiya	97
Tagiyeva G. G., Xujanov Z.	Ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini takomillashtirish yo'llari	101
Qudratov A. M.	Volontyorlikni tadqiq etishga oid ilmiy yondashuvlar	106
	IQTISODIYOT / ECONOMICS	
Aynaqulov M. A., Nazarov O. T.	Motivatsiya funksiyalarining o'rni va xususiyatlari	110
Shukurov F. F.	Qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	116
Xudoyorov L. B.	Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish mezonlari va ko'rsatgichlari	123
	O'QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY	
Xodjayev J.	Xor jamoalari bilan ishlash jarayonida vokal, solfedjio mashqlarining ahamiyati	129
Qurbonova M. F.	Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasi: tushuncha, xususiyatlar, mazmuni va shakllanish bosqichlari	132
Jomonqulova F.E., Esanov M.A.	Oliy ta'lim tizimida malakali kadrlarni yetishtirib berishga bo'lgan innovatsion yondashuvlar	136
Rustamov J.E.	Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish	139
Solayeva M. N., Seytov A. J.	Maktab o'quvchilariga ketma- ketlik va funksiya limitini o'rgatishdagi ba'zi misollarni ishlashning innovatsion uslublari	145
Omonov H.T., Egamberdiyev I.B.	Noorganik kimyoni o'qitishda tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik asoslari	149
Tolibov N. N.	Kasbiy faoliyat ko'nikmalarni shakllantirish shartlari	152
Nizamova S. A.	Kimyo fanini ta'lim samaradorligini oshirishda multimediya dasturlaridan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimi	155
Djuraeva L.T., Nurmurodova N.F., Beknaev U.A.	Fizikaning qishloq xo`jaligidagi ahamiyati	158
Tuxtasinov I. M., Xoliyorov B. H.	Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	162

Mualliflarga

UDK: 321(575.1):371

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATIDAGI ISLOHOTLAR, YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

X.A.Oripov, J.Sh.Shakarov
Samarqand Davlat universiteti
oripovkh@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosatidagi islohotlar, yosh avlod tarbiyasi, ularni komil inson qilib voyaga yetkazish, halq va millat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan yoshlarni tarbiyalash masalalari yoritilgan. Har qanday davlatning yoshlar siyosatini amalga oshirishidan maqsadi mamlakat iqtisodiy va siyosiy salohiyatini oldindan, ya'ni istiqbolli tarzda mustahkamlash, davlatchilik asoslarining kelgusi zahiralarini yaratish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy takomillashuvning asosini barpo etishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: yoshlar, huquqiy madaniyat, ma'rifat, tarbiya, yoshlar siyosati, huquqiy ong, ijtimoiy hayot, ma'naviyat.

Реформы молодежной политики в Республике Узбекистан и формирование правовой культуры молодёжи

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования молодёжной политики в Республике Узбекистан, воспитания молодого поколения, развития его как идеального человека, воспитания молодёжи способной ставить интересы народа и нации выше собственных интересов. Цель молодёжной политики любого государства состоит в том, чтобы продвигать, другими словами, укреплять экономический и политический потенциал страны, создавать будущие резервы основ государственности, закладывать основы для экономического, социального и политического совершенствования.

Ключевые слова: молодёжь, правовая культура, образование, воспитание, молодёжная политика, правосознание, общественная жизнь, духовность.

Reforms of youth policy in the Republic of Uzbekistan and the formation of a legal culture of youth

Abstract. The article discusses the formation of youth policy in the Republic of Uzbekistan, the upbringing of the young generation, its development as a an ideal person, the upbringing of young people who are able to put the interests of the people and nation above their own interests. The goal of the youth policy of any state is to promote, in other words, strengthen the country's economic and political potential, create future reserves of the foundations of statehood, and lay the foundations for economic, social and political improvement.

Keywords: youth, legal culture, education, upbringing, youth policy, legal awareness, social life, spirituality.

Jamiyat taraqqiyotini, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni mafkurasiz tasavvur etish mumkin emas. O‘zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g‘oyaviy, siyosiy, huquqiy yetuklik darajasiga, milliy o‘zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olish kabi masalalarga bevosita bog‘liq. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston tomonidan "Yoshlar huquqlari to‘g‘risida"gi konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgani jaholatga qarshi – ma'rifat tamoyili asosida olib borayotgan keng ko‘lamli ishlarimizning uzviy bir qismi bo‘lib, u yer yuzidagi ikki milliarddan ziyod yoshlarning haq-huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu masalalarning yechimiga oid O‘zbekiston Respublikasida 2016-yilning 14-sentabrida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406- sonli Qonunning qabul qilinganini alohida qayd etib o‘tish joiz. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik yo‘nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llarini belgilab berdi. Yoshlarga oid davlat siyosati davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni

ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir. Shunday ekan, qonun yoshlarimizning huquqiy madaniyatini oshirishda huquqiy kafolat hisoblanadi, normativ-huquqiy aktda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash belgilab qo‘yilgan.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;
- yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg’usi, bag’rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo’lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo’ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;
- iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;
- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;
- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishdir [1].

Ushbu Qonunga ko’ra, davlat yoshlar siyosatini amalga oshirar ekan, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqyei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’iy nazar, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an’analarning avloddan avlodga o‘tishi, avlodlarning ma’naviy aloqalarini ta’minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari doirasida o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishlarini kafolatlash, jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta’minlashni o’ziga vazifa qilib olishi belgilab qo‘yilgan.

Bizga ma’lumki, mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday deyiladi: “Xalqimizda “ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so’z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya’ni ta’lim bog‘chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim” [2]. Ushbu murojatnomaning tasdig‘i sifatida yurtimizda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlarning oliy ta’limga qamrovini kengaytirish maqsadida ta’lim muassasalari soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda Respublika bo’yicha oliy ta’lim muassasalari jami 113 ta, ulardan, 25 ta universitetlar, 33 ta institutlar, 2 ta akademiyalar, 30 ta filiallar, 1 ta konservatoriya, 1 ta oliy maktab, 21 ta chet el oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Birgina misol, O’zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni 2016-yilda 77 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda 113 taga yetdi. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari soni 2016 -yildagi 7 tadan bugungi kunga kelib 21 taga yetdi. Birgina 2019-2020 o‘quv yilida 20 ta: 10 ta xorijiy va 10 ta mahalliy oliy ta’lim muassasalariga qabul boshlandi. Bu raqamlar o’sishda davom etmoqda [3]. Eng muhimi, qabul jarayonlaridagi shaffoflikning ta’minlanishi bilimli yoshlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarida birgina Samarqand Davlat universitetida 21 nafar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi, 106 nafar Beruniy,

Navoiy, Ulug‘bek, I.Karimov nomli davlat stipendiyasi sovrindorlari, 252 nafarga yaqin talabalar fan olimpiadalari g‘oliblari bo‘lishdilar.

Xalq ta’limi tizimida ham yoshlarga qaratilayotgan e’tiborni alohida ta’kidlash joiz. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq Qoraqalpog’iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasasi shaklidagi Prezident maktablari tashkil etilishi va Prezident maktablarining asosiy vazifalari belgilangan. Unga ko‘ra, Prezident maktablarida ta’lim jarayoni xorijiy ta’lim muassasalar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘quv rejalari va dasturlari bo’yicha ingliz tilida amalga oshirilishi, Prezident maktablarida STEAM- (science-tabiiy fanlar, technology-texnologiyalar, engineering-texnik ijodkorlik, art-san’at, mathematics-matematika) dasturi joriy etilishi, Prezident maktablari bitiruvchilariga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalariga kirish imkonini taqdim etuvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate. Advanced Placement yoki International Advanced Levels) berilishi kabi vazifalar belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida 2019-yil davomida yoshlarning 1 ming 991 ta biznes loyihalariga jami 458,3 mlrd. so’m imtiyozli kredit mablag‘lari ajratish orqali 9 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Respublika bo‘ylab 10 ta “Yosh tadbirkor” kovorking markazi hamda 54 ta “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari qurilib foydalanishga topshirilishi orqali jami 573 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Davlat dasturi doirasida yoshlarning umumiy qiymati 15,3 mlrd. so‘mlik loyihalariga jamg’arma kafilligi taqdim etilib, ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashlariga ko‘maklashildi. Shuningdek, Davlat dasturi doirasida imtiyozli kredit ajratilib, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo’ygan yosh tadbirkorlarning 750 ming AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlari chet elga eksport qilindi [4].Mintaqamizda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash zaruriyatining sabablaridan biri shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti chet el sarmoyalari, zamonaviy texnika va texnologiya, bozorni shakllantirish usullari bilan bir qatorda mamlakatimizga o‘zining madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va tasavvurlarini ham olib kirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida” gi PF-5106- sonli Farmonida yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o’qishga bo’lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat” va boshqa yot g’oyalarga qarshi mustaqkam immunitetni shakllantirish muhimligi qayd etilgan [5]. Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hisssa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida “Yosh kitobxon” tanlovi tashkil etildi. Ushbu tanlovning Respublika bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchiga “Spark” avtomobili bilan rag‘batlantiriladigan bo‘ldi. Bu esa, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga turtki bo‘ldi desak, yanglishmaymiz. Prezidentimiz yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash hamda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ishlab chiqdilar.

Jumladan, birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilishdir. Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan. Uchinchi tashabbus - aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. To‘rtinchi tashabbus - yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o’rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha

tizimli ishlarni shakllantirish. Beshinchi tashabbusda esa xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari nazarda tutilgan.

Ana shu ezgu g'oya Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida boshlanib, qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi. Mazkur hududdagi tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Musiqa va san'at maktablari cholg'u asboblari, sport obyektlari jihozlar bilan ta'minlandi. Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirilib, "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi [6].

Ijtimoiy hayotda yoshlar faoliyatiga nisbatan liberal siyosat yuritish ular tarbiyasiga putur yetkazadi. Azal-azaldan yoshlar tarbiyasi ota-ona, qo'ni-qo'shnilar, mahalla va keng jamoatchilik tomonidan doimo nazoratda bo'lib kelgan. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish, bizningcha, to'g'ri bo'lar edi:

- Birinchidan, "shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat" konsepsiyasi asosida barchada daxldorlik hissini uyg'otish lozim.
- Ikkinchidan, barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha keskin choralar ko'rish zarur. Buning uchun, salohiyatli, ilmli yoshlar o'rtasida turli xil brifinglar, master klasslar, konkurslar tashkil etish va talaba-yoshlarga har bir ilmiy ishi uchun eng kam oylik ish miqdorida rag'batlantirish lozim. Zero, investisiyalar bilimga, g'oyaga qaratilsa, yoshlarimiz barcha masalalarga kreativ yondashadilar.
- Uchinchidan, ta'lim muassasalarida sog'lom raqobatni kuchaytirish kerak. Masalan, "Prezident asarlari bilimdoni", "Huquqiy fanlar bilimdoni", "Deputat bo'lsam", "Hokim bo'lsam", "Prokuror – qonun himoyachisi" kabi tanlovlar tashkil etish maqsadga muvofiq.
- To'rtinchidan, har bir ta'lim mussasasi qoshida "Huquqiy klinika" tashkil etish lozim, ushbu klinikada ko'ngillilardan iborat guruh yurtimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy aktlar bilan aholining turli qatlamlarini albatta, reja asosida kamida bir oyda bir marta tanishtirib boradi.

Vatanimizdagi har bir yosh avlod ongiga ana shu maqsadlarimizni singdirib borsak, ularga yangi zamonaviy bilimlar berib, milliy g'oyamiz ruhida tarbiyalasak, ertaga mehnatimizning samarasini, albatta, ko'ramiz. Har qanday davlatning yoshlar siyosatini amalga oshirishidan maqsadi mamlakat iqtisodiy va siyosiy salohiyatini oldindan, ya'ni istiqbolli tarzda mustahkamlash, davlatchilik asoslarining kelgusi zahiralarini yaratish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy takomillashuvning asosini barpo etishdan iboratdir.

Tarbiya har bir davrda kelajakni ta'minlashning eng muhim omili hisoblanib kelingan. Lekin unga nafaqat ta'lim, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlar, qadriyatlar, muhit, odamlarning o'zaro munosabatlari ham ta'sir ko 'rsatadi. Ijtimoiy masalalarda adashilsa, jamiyat tarbiyasida muammolar yuzaga keladi. Ijtimoiy masalalar, maqsadlar, qadriyatlar tanlashdagi xotolar oqibatida "boy berilgan avlod" – "Lost generation" iborasi paydo bo'ldi. "Lost generation" – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, lost – yo'qotilgan, qo'ldan boy berilgan, adashgan, generation – oila avlodi, mamlakatdagi bir avlodning 25-30 yilga teng davridir. Ushbu avlodni beqarorlik, depressiya sharoitida tug'ilgan, xudbin, loqayd, jamiyatga foydasi tegmaydigan, shafqatsiz, alamzada, ichkilikbozlikka berilgan jinoiy ishlarga qo'l urgan, qo'lidan ish kelmaydigan, axloqsiz kishilar toifasi deyish mumkin [7]. Rivojlangan davlatlarning ko'pchiligida moddiy hayotning, biznesning asosiy o'ringa qo'yilishi natijasida yosh avlod tarbiyasiga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

A.Erkayev ta'kidlaganidek: "jamiyat ta'lim-fan, texnika yutuqlarini yangi texnologiya talablarini o'zlashtirishga tobora ko'proq vaqt ajratishga, tarbiya bilan kamroq shug'ullanishga majbur bo'ldi. Tarbiya ta'limdan ortda qola boshladi" [8]. Natijada yoshlar o'rtasida texnokratik qarashlar, iste'molchilik psixologiyasi, mumtoz qadriyatlarga bepisandlik kuchaya boshladi. Tarbiyadan vaqt tejash oqibatida davlat yoki oila budjeti foyda ko'rgan bo'lishi mumkin, lekin endi bolalarni qayta tarbiyalash uchun sarflanayotgan mablag' ko'rilgan foydadan o'n barobar ziyodni tashkil etmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qadimdan yosh avlod sog‘lom, komil inson qilib voyaga yetkazish, jamiyatda o‘zining munosib o’rnini topishiga erishish, xalq va millat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘ya oladigan ruhda tarbiyalash yurtimizda azaldan ustuvor masala bo‘lib kelgan. Shu sababli davlatimiz tomonidan yoshlarga barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Ana shu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, kelajakda to‘g‘ri yo‘lni tanlab, o‘z oldimizga aniq maqsad qo‘ya olsak va dadil harakat qilsak, taraqqiyotning yangi marralarini kashf eta olamiz.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида» ги ЎРҚ-406- сонли Қонуни. Халқ сўзи газетаси, 2016 йил 15 сентябрь, № 182 (6617). 1-бет.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Маҳалла газетаси. 2018 йил 29 декабрь 164-165-сон (1642). 3-бет.

3. www.uza.uz./soceity/.

4. www.yoshlarittifoqi.uz/uz/news/4496

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида» ги ПФ-5106-сонли Фармони. Зарафшон газетаси, 2017 йил 8 июль, № 85 (22885) 2-б

6. www.uza.uz./soceity/.

7. Қуронов М. XXI асрда қайси давлат кучли бўлади? // “Маънавий ҳаёт”, 2013. Нишона сон. 14-б.

8. Эркаев А. Эркин инсон ва маънавий тарбия // “Тафаккур” журнали, 2014. 4-сон.13-14 бетлар.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar**: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma’lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas’ul kotib **X. Sh. Tashpulatov**
Texnik muharrir **A. I. Inatov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - f.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.n., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent
A.R.Safarov - PhD., dotsent

Mas’ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Xaydarov - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 29.08.2020 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 277. Adadi 30 nusxa.

_____

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.